



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

---

**JADIDLAR MILLIY O'ZLIK VA ISTIQLOL G'OYALARI  
ИДЕИ ДЖАДИДОВ О НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И  
НЕЗАВИСИМОСТИ**

**THE IDEAS OF THE JADIDS ON NATIONAL IDENTITY AND  
INDEPENDENCE**

Ilmiy rahbar : Burxanova Sabo To'lanovna TDIU

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Fayzullayeva Shohista TDIU

1 bosqich BHA 54 guruhi talabasi

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada jadidlarning ilgari surgan g'oyalarini bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan muammolarning yechimi sifatida inson sha'ni va oriyatini himoya qiluvchi insonparvarlik, xurfikirlilik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalarini yosh avlodga ta'lim-tarbiya sifatida ularni ma'rifatga yetaklash kabi g'oyalar bayon qilingan.

**KALIT SO'ZLAR:** Turkiston, jadidlar, milliy o'zlik, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablari, taraqqiyot, islohot.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье описываются идеи, выдвигаемые древними как решение проблем, которые сегодня тормозят общественное и духовное развитие, такие как идеи гуманности, предрассудков, религиозной толерантности, межнационального согласия, которые защищают человеческое достоинство и достоинство, и ведут их к просвещению как воспитание и воспитание молодого поколения.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Туркестан, современники, национальная идентичность, наука, образование, школы нового метода, развитие, реформа.



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

### ANNOTATION

This article describes the ideas put forward by the Jadids as solutions to the problems that hinder socio-spiritual development today, such as humanism, freethinking, religious tolerance, and interethnic harmony that protect human dignity and worth, and how to educate the younger generation and lead them to enlightenment.

**KEYWORDS:** Turkestan, Jadids, national identity, science, education, new-method schools, development, reform.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. «Jadid» soʻzi arabcha yangi usul degan maʼnoni anglatadi.

Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-maʼrifiy harakatning, yaʼni eski maktablarning qiyin oʻqitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida oʻqitishga oʻtishdangina iborat emasdi, ayni chogʻda turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga oʻrgatilishi, milliy-maʼrifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham oʻz ichiga olgan edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Chor rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati faqatgina siyosiy hukmronlikni emas, iqtisodiy hukmronlikni ham anglatar edi. Chor rossiya hukumati Turkistonni oʻz izmiga olishga ahd qildi.

Rus hukumati ruslashtirish va ulugʻ davlatchilikka asoslangan siyosat yurgʻizdi. Ular imkon boricha milliy til va milliy madaniyatni rivojlantirishga toʻsqinlik qilib, maktab va madrasalarga mablagʻ ajratishni xayollariga ham keltirmas edilar.[1]

Ammo shunday vaziyatda ham maʼrifatparvarlar bor edi bunga misol qilib Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, Choʻlpon va yana boshqa koʻplab jadidchilar xalqqa ilm berish uchun oʻz jonlarini xavf ostiga qoʻygan holda oʻzlari ilk maktab va madrasalarni barpo qilishni boshlashdi.

Ularni oʻsha davrda xalq dushmani deb qoralashdi ayrimlarini uzoq yurtlarga surgun qilishdi. Turkistonning ilm-maʼrifatli ziyolilari rus hukmronligini chetdan tiqishtirilgan davlat ekanligini, bu milliy qadriyatlarni ifodalay olmasligiga



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

ishonch xosil qilib, o'z mamlakatini boshqara olishga qodir ekanligini his qila boshladilar va o'z vatanining ozodligi siyosiy mustaqilligi uchun kurash olib bordilar.[2]

“Taqr etildik, qo'limiz bog'landi. Tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz poymol qilindi. Insoniyligimiz oyoq osti qilindi. Tuzimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo'ysundik. Butun borlig'imizni berdik” deb yozadi Fitrat.[3]

Jadidchilikni harakat sifatida kuzatar ekanmiz, bu harakatning barcha faoliyat qirralarini ijtimoiy siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilganligining guvohi bo'lamiz. Bu esa ularning milliy taraqqiyoti va uning omillarini qanday tushunganligini bilib olishimizga yo'llanma beradi.

Barcha ilg'or jadidchilar milliy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida millat va din munosabatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarga erishish masalalari ekanligini yaxshi bilganlar. Jadidlar nazarida milliy taraqqiyotning asosini millat ruhi va uning tetikligi tashkil qiladi.

Jadidlar yoshlarga murojat qilib millatning taraqqiyoti uchun kurashishga chaqirdi va ularni millat taraqqiyoti poydevorlari deb tushunadi.

Ular shu masalada yoshlarga murojaat qilar ekan Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim-tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati marifatparvarligi, shijoati soyasida vujudga keladi deydi.

Shuning uchun har bir milliy o'zimizda mavjud bo'lgan mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni ilm salohiyatidan umidvormiz va ulardan yordam so'raymiz deb yozadilar. Jadidlar xalqni boshi berk ko'chadan olib chiqishning yagona to'g'ri yo'li nafaqat ma'rifatda, ta'limda, siyosatda balki turkiy xalqlarning birligida deb bilganlar. Jadidlar yangi zamonni ilm-ma'rifat asosiga qurilgan ilg'or jamiyatni orzu qilgan millat oydinlari edilar.[4]

Jadidchilar xalqni ilmi bo'lishi uchun oson tushinadigan darsliklarni yaratdilar unga ko'ra Jadid maktabi, ilm beshigidir. Bu beshikdan keyin albatta, maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlarining bo'lishi va yoshlar tahsili shu tarzda uzluksiz davom etishi zarur deb ta'kidlashgan.



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

Jadidlarning ijtimoiy siyosiy hayotdagi faoliyati, ularning milliy o'zlik va istiqlol g'oyalariga ta'siri haqida gapirganda, ularning o'z davrida amalga oshirgan islohotlari va mafkuralari juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.[5]

Jadidlar o'z faoliyatida nafaqat ma'rifatparvarlikni, balki milliy ozodlik, istiqlol g'oyalarini ham ilgari surishgan. Ular Turkistonning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasini o'zgartirishni, xalqni oriyatli, erkin va mustaqil qilishni maqsad qilganlar.

Jadidlar, ayniqsa, ta'lim sohasida katta islohotlarni amalga oshirdilar. Ular an'anaviy maktablarning yuksakliklarini, asosan diniy ta'limni yangilashni va umuman jamiyatda yangi bir ma'naviy islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilganlar. Jadidlarning "yangi usul" ta'limi ta'lim metodlarida o'zgarishlarni ko'zda tutgan. Ular bilim olishda amaliy yondashuvni, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga ko'proq ahamiyat berishgan.[6] Jadidlar Turkistonni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashga harakat qilishgan. Buning natijasida, yosh avlod orasida yangi dunyoqarash va ijtimoiy faollik shakllandi. Jadidlar o'z faoliyatida milliy o'zlikni, xalqning tarixiy merosini va madaniyatini tiklashni maqsad qilishgan.

Turkistonning mustaqil davlat bo'lishi, o'zining milliy madaniyati va an'analarini hurmat qilishni ularga asosiy g'oya sifatida qabul qilishdi. Jadidlar, ayniqsa, milliy mustaqillik g'oyalarini ilgari surdilar. Ular, o'z davrida kolonial hukumatlar ostida bo'lgan Turkiston xalqlarining mustaqil bo'lishini, o'z o'zini boshqarishini va milliy identifikatsiyasini tiklashni maqsad qilishgan. Bu g'oyalar ko'plab adabiy, ilmiy va siyosiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

"Bobokalonlarimizning mashhur nasihati bor, ular o'z o'g'illariga aytadiki, birlashingiz. Masalan, bir dasta tayoqni birga bog'lasangiz, hech kim sindirolmaydi. Agarda ularni ajratsangiz, har kim sindira oladi", degan edi Turkiston jadidchiligining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy. Tarqoqlik noittifoqlik ular nazarida mustaqillikning asosiy sharti aql-zakovatga boy bo'lgan kelasi avlod bilan shijoatli yoshlarning avlodining birlashuvi deb bilganlar.

Jadidlar birinchi navbatda davlatning ozodligi uchun Turkistonda milliy davlat qurishning o'ziga xos usulini shakllantira olganlar. Vatanni mustamlakachilikdan ozod qilish uchun bor kuchlari bilan harakat qilganlar. Hamda jamiyat hayotini yangilashda mexanizmlarni yaratishdagi ulkan harakatlari bilan xalq va vatan ishonchini qozonganlar.



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki "Jadidlar oldiga 9 ta asosiy yo'nalishni qo'ygan. Ular ichida birinchisi, istiqlof edi. Keyingi masala, o'zlikni tanish va dunyoga tanishtirish bo'lgan. Bu 1-2 yil yoki islohot bilan amalga oshadigan hodisa emas. Shuning uchun ular qo'ygan muhim masalalardan biri shu. Yoki bo'lmasa o'zbek tilini dunyo miqyosida joriylanishi ham muhim yo'nalish sifatida ko'rigan. Jadidlar Alisher Navoiy darajasidagi yozuvchilar yetishib chiqishini orzu qilishgan. Shuning uchun ham Qodiriy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lponlar ulug' va go'zal asarlar yozib qoldirdi. Nazarimda, jadidlar boshlab bergan yo'l davom etadi. Ularning ulug'vor va ezgu niyatlari bir kun kelib to'liq amalga oshadi", deb aytib o'tadi tarixchi olim.

Albattaki jadidlar g'oyalari negiziga juda katta g'oyalar mujassamlashgandir. Bugungi kunda ham kun tarixchilar tomonidan shu g'oyalar negizidagi fikrlar tatbiq qilinib borilmoqda. Ushbu maqolamizda shu g'oyalarni keng bayon etishga va jadidlarning intilishlariga to'xtlib o'tishga harakat qildik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyoyev.X. Turkistonda Rossiya taajovuzi va hukumronligiga qarshi kurash.- Toshkent: Sharq, 1998. B. 361
2. Mustaqbid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: Tarix shoxidligi va saboqlari(1865-1990 yillar)/ Loyiha rahbari va masul muharrirlar: D.A.Alimova/. Toshkent." Sharq", 2000.B.432
3. "Sharq yulduzi" , 1992, 10-son, B.173.
4. <https://zenodo.org/records/14929795>
5. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари.
6. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2016. – Б.87
7. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. – Т., 2006.